

---

## Rishton tumanida 80 o‘rinli yangi xususiy maktabgacha ta‘lim tashkiloti ish boshladi

Bolalarning sog‘lom o‘sishi va tizimli o‘qitishga tayyorlash uzluksiz ta‘limning boshlang‘ich qismi hisoblangan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining ustuvor vazifasi etib belgilangan. Bugun Rishton tumanida “Genius Kids” nomli xususiy maktabgacha ta‘lim tashkiloti ish boshladi. Yangi bog‘chani ochilish marosimida tuman hokimi, sektor rahbarlari va “Nuroni” jamg‘armasi tuman bo‘limi raisi, jamoatchilik vakillari hamda mahalla faollari ishtirok etishdi. Tadbirda tuman hokimi ta‘kidlaganidek, mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Rishton tumanida ham maktabgacha ta‘lim maskanlarini ko‘paytirish uchun oilaviy, nodavlat hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog‘chalar tashkil etilmoqda. Natijada tumanda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni va bolalarni maktabgacha ta‘limga qamrab olish darajasi yildan yilga ortib bormoqda. Rishton tumani 2-sektor hududidagi “M. Topvilodiev” mahalla fuqarolar yig‘inida tadbirkor Umidaxon Xo‘jaeva tomonidan yangi tashkil etilgan mazkur xususiy bog‘chada 80 nafar bolajonlar maktabgacha ta‘limga jalb etilib, 15 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Yangi maktabgacha ta‘lim muassasasida kichkintoylarning sifatli boshlang‘ich ta‘lim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Ushbu maktabgacha ta‘lim muassasasida rus va ingliz tili, raqs, mental arifmetika singari to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Yaqin kunlarda tarbiyalanuvchilar sonini 100 nafarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

2024-09-23 15:14:26